

LOGISTIKA TIZIMI PLATFORMALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI MAMLAKATNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI KO'LAMINI VA GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISH MASALALARI

Matkarimov Kamoliddin Jo'raboievich

Namangan davlat texnika universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasini professori

+998943020555

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar hamda ularni ijrosini ta'minlashda www.logistika.uz transport axborot-logistika portalining o'rni tahlil etilgan. Shuningdek, transport-logistikasi faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'yektlarning doirasini kengaytirish orqali tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va ko'lamini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Logistika tizimi, transport logistikasi, tashqi iqtisodiy aloqalar, konsepsiya, yuk tashish, yuk tashuvchi, yuk egasi, broker, ekspeditor, sug'urta kompaniyasi.

I. Kirish.

Respublika transport-logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish, istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-28 qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [1].

II. Asosiy qism.

Bugungi kunda respublikamizda xalqaro qatnovlar uchun ochiq bo'lgan jami 77 ta, shu jumladan, avtomobil yo'llarida 48 ta, chegaraoldi temir yo'l bekatlarida 17 ta, aeroportlarda 11 ta hamda daryo portida 1 ta Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari mavjud.

O'zbekistonda 2017-2024-yillarda xalqaro yuk tashish hajmi 1,8 barobarga o'sib, 2024-yilda 59,6 mln tonnani (shundan avtomobil transportida - 16,6 mln tonna, temir yo'l transportida - 43,0 mln tonna, havo transportida - 83 ming tonna) tashkil qildi [2].

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi va "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish natijasida 2030-yilga qadar quyidagi maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarga erishish lozimligi belgilangan [1, 3]:

- avtomobil, temir yo'l va havo transportida xalqaro yuk tashish umumiy hajmini kamida 2 baravarga oshirish;
- transport va logistika xizmatlari eksportini 2 baravargacha oshirish;
- barcha transport turlarida yillik tranzit yuk tashish hajmini 22 mln tonnaga yetkazish;
- konteynerlarda yuk tashish ulushini kamida 1,5 barobarga oshirish;

- transport-logistika markazlari tarmog'ini yaratgan holda ularning yuklarga ishlov berish quvvatini kamida 3 baravarga ko'paytirish;

- Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) O'zbekiston Respublikasining o'rni 55-pog'onadan past bo'lmagan darajagacha ko'tarish.

O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijalari bo'yicha xalqaro yuk tashish hajmi 2 barobarga oshib 119,2 mln tonnaga yetishi va boshqa maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar belgilangan (1-jadval).

1-jadval

Maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar [1]

T/r	Ko'rsatkich va indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024 y.	Rejalashtirilgan maqsad:					
				2025 y.	2026 y.	2027 y.	2028 y.	2029 y.	2030 y.
1.	Xalqaro yuk tashish hajmi (quvur transportidan tashqari)	mln tonna	59,6	63,7	68	72	76,9	83,8	119,2
2.	Tranzit yuk tashish hajmi (quvur transportidan tashqari)	mln tonna	13,9	14,6	15,2	16	17	18,1	22,0*
3.	Transport va logistika xizmatlari eksporti	mlrd AQSH dollari	1,88	2,09	2,27	2,54	2,81	3,1	3,5
4.	Transport infratuzilma sifati:								
	elektrlashtirilgan temir yo'llar ulushi	foiz	48	51	52,3	54	55,3	60,2	65
	o'tkazuvchanligi chegaralangan umumiy foydalanishdagi temir yo'l liniyalari uzunligining ulushi	foiz	15	14	13	12	11	10	9
	xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarining ta'mirtalab qismlari	foiz	24	22	20,5	19	17	16	15
	xalqaro aeroportlar yuk terminallarining yillik o'tkazuvchanlik quvvati	ming tonna	140	185	252	265	285	295	310
5.	Bojxona samaradorligi:								
	chegara o'tkazish punktlari orqali harakatlanayotgan yuk avtotransport vositalarining davlat nazorat tartib-taomillaridan o'tishiga sarflanadigan umumiy vaqt	daqiq	40	35	30	25	20	15	10
	sun'iy intellekt yordamida avtomatik tarzda rasmiylashtiriladigan bojxona tranzit yuk deklaratsiyalari ulushi	foiz	0	5	10	15	25	35	45
6.	Transport-logistika xizmatlari:								
	xalqaro yo'nalishlarda konteynerda tashishlar ulushi	foiz	6,2	6,4	6,6	6,8	7,4	8,1	9

avtomobilda eksport-import yuk tashishlar hajmida milliy tashuvchilarning ulushi	foiz	59,7	61	61,5	62,3	63,5	64,0	65,0
logistika markazlarida yuklarga ishlov berishning yillik quvvati	mln tonna	10,4	14,5	17	20,5	24	27,5	31,2

Yuqorida belgilab berilgan maqsadlarga erishish uchun mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari ko'lamini va geografiyasini kengaytirish bilan birga xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda logistika tizimi platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovasion texnologiyalarni keng joriy etish zarurdir.

Shu maqsadda respublikamizda tovarlarni tashish, ekspeditorlik, sug'urta qilish, saqlash va bojxona rasmiylashtiruvini bilan bog'liq bir qator xizmatlarni ko'rsatuvchi kompaniyalarni o'z ichiga olgan xalqaro yuk tashish jarayonidagi barcha ishtirokchilarning ehtiyojlarini o'rganish natijalari asosida www.logistika.uz transport axborot-logistika portali ishlab chiqilgan [4]. Bu portal Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi yaratilgan va hozirga qadar yagona portaldir [5].

Ushbu axborot resursi tadbirkorlar (yuk egalari) va transport korxonalari (tashuvchilar), shuningdek ekspeditorlik, sug'urta, saqlash va bojxona rasmiylashtiruvini bilan bog'liq bir qator xizmatlarni ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar uchun mo'ljallangan.

Portalning tashuvchilar katalogida quyidagi tashish turlari ko'rsatilgan:

- **Avtomobillarda tashish.** 2025-yil 23 may-holatiga portalga 1923 ta yuk tashish kompaniyalari va 174 ta xususiy tashuvchilar, jami 2097 ta tashuvchi a'zo bo'lgan. Tashuvchilarning 790 nafari o'zbekistonlik, qolganlari esa dunyoning 37 davlatiga tegishli tashuvchilardan iborat. Jumladan: Rossiya (495 ta tashuvchi), Belorussiya (113), Ukraina (101), Xitoy (65), Litva (63), Qozog'iston (63).

- **Temir yo'llarda tashish.** Portalga 841 ta yuk tashish kompaniyalari va 17 ta xususiy tashuvchilar, jami 858 ta tashuvchi a'zo bo'lgan. Tashuvchilarning 333 nafari o'zbekistonlik, qolganlari esa dunyoning 17 davlatiga tegishli tashuvchilardan iborat. Jumladan: Rossiya (145 ta tashuvchi), Xitoy (97), Litva (44), Qozog'iston (39), Belorussiya (32), Ukraina (32).

- **Havo transportida tashish.** Portalga 635 ta yuk tashish kompaniyalari va 13 ta xususiy tashuvchilar, jami 648 ta tashuvchi a'zo bo'lgan. Tashuvchilarning 289 nafari o'zbekistonlik, qolganlari esa dunyoning 30 davlatiga tegishli tashuvchilardan iborat. Jumladan: Rossiya (101 ta tashuvchi), Xitoy (57), Litva (28), Ukraina (27), Turmaniston (26), Qozog'iston (21).

- **Multimodal tashish.** Portalga 834 ta yuk tashish kompaniyalari va 13 ta xususiy tashuvchilar, jami 847 ta tashuvchi a'zo bo'lgan. Tashuvchilarning 333 nafari o'zbekistonlik, qolganlari esa dunyoning 17 davlatiga tegishli tashuvchilardan iborat. Jumladan: Rossiya (141 ta tashuvchi), Xitoy (74), Litva (50), Ukraina (42), Belorussiya (34), Qozog'iston (29).

Tashuvchilarning takliflari katalogida muntazam yuk tashish tashkil etilgan quyidagi marshrutlar ko'rsatilgan (bulardan tashqari zaruriyatga qarab bir martali tashish marshrutlari tashkil etiladi):

- **Avtomobillarda tashish.** Quyidagi muntazam marshrutlar bo'yicha yuk tashish amalga oshiriladi: Toshkent-Minsk; Toshkent-Moskva; Toshkent-Podolsk; O'zbekistonning ixtiyoriy hududi-Moskva; Toshkent-ixtiyoriy port; Toshkent-Bander-Abbas; Toshkent-Yekaterinburg.

- **Temir yo'llarda tashish.** Moskva va Rossiya Federatsiyasining barcha temir yo'llari bo'ylab;

- **Multimodal tashish.** Toshkent-Gamburg.

Muntazam yuk tashish asosan portalga a'zo bo'lgan xorijiy tashuvchilar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Yuk egalari katalogida jami 353 sub'yekt ro'yxatdan olingan bo'lib, ularning 189 nafari O'zbekistonlik, shuningdek bir qator xorijiy mamlakatlarning yuk egalari ham portalgan a'zo bo'lishgan. Jumladan: Rossiya (92 nafar), Belorusiya (21), Ukraina (14), Qozog'iston (11), Turkmaniston (2), Germaniya (2), Litva (2) va boshqalar.

Yuk egalarining takliflari bo'limi orqali yuk egalarining muntazam yoki bir martalik buyurtmalari qabul qilinadi.

Ekspeditorlar katalogida 342 ta ekspeditor ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 84 tasi O'zbekistonlik ekspeditorlardir. Shuningdek portalda 20 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning 250 dan ortiq ekspeditorlari ham ro'yxatdan o'tgan. Jumladan: Rossiya (80 ta), Ukraina (35), Belorussiya (26), Qozog'iston (24), Xitoy (20) va boshqa mamlakatlar.

Sug'urta kompaniyalari katalogida 28 ta ekspeditor ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 20 tasi O'zbekistonlik sug'urta kompaniyalaridir. Shuningdek portalda xorijiy mamlakatlarning 8 ta sug'urta kompaniyalari ham ro'yxatdan o'tgan. Jumladan: Qozog'iston (4), Polsha (2), Rossiya (1), Litva (1).

Bojxona brokerlari katalogida 140 ta bojxona brokerlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 93 tasi O'zbekistonlik bojxona brokerlaridir. Shuningdek portalda 8 ta xorijiy mamlakatlarning 47 ta bojxona brokerlari ham ro'yxatdan o'tgan. Jumladan: Rossiya (24), Ukraina (9), Qozog'iston (5), Litva (3) hamda Turkmaniston, Azarbayjon, Belorussiya va Tojikiston mamlakatlaridan 1 tadan bojxona brokerlari ro'yxatdan o'tgan.

Omborxona terminallari katalogida 76 ta omborxona terminallari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 32 tasi O'zbekistonlik omborxona terminallaridir. Shuningdek portalda 13 ta xorijiy mamlakatlarning 44 ta omborxona terminallari ham ro'yxatdan o'tgan. Jumladan: Rossiya (13), Belorussiya (5), Latviya (4), Polsha (4), Litva (3) va boshqa mamlakatlarning omborxona terminallari ro'yxatdan o'tgan.

Transport-logistika jarayoni qatnashchilari portalning avtomobil yo'llari katalogi orqali quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar: eng qisqa masofa bosib o'tiladigan harakat marshruti; harakat marshrutidagi shaharlar, qishloqlar va aholi yashash punktlari orasidagi masofa; marshrutdagi avtomobillarga yonilg'i quyish shaxobchalari, avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stansiyalari va avtomobillarga gaz quyish stansiyalari; mehmonxonalar, oshxonalar, texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari, avtoturargohlar, qisqa muddat to'xtab turish joylari [7].

Tahlillar www.logistika.uz. transport axborot-logistika portalida ro'yxatdan o'tgan xorijiy yuk tashuvchilar, yuk egalari, ekspeditorlar, omborxona terminallari va

bojxona brokerlarida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarida yetakchi o'ringa ega bo'lgan Rossiya, Xitoy, Belorussiya va Qozog'iston mamlakatlari yetakchi o'ringa ega.

III. Xulosa.

O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda logistika tizimi platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovasion texnologiyalarni keng joriy etish dolzarbdir. Shuning uchun www.logistika.uz. transport axborot-logistika portaliga O'zbekiston bilan tashqi iqtisodiy aloqalari hozirga qadar yetarlicha rivojlanmagan mamlakatlar, xususan AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Hindiston va boshqa mamlakatlarning shu sohadagi sub'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish orqali tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va ko'lamini oshirish lozim. Shuningdek, portalda har bir marshrut bo'yicha birlik bajarilgan transport xizmati uchun yuk tashuvchilarning tariflarini kiritish, hamda marshrutlardagi yo'l infratuzilmasi o'yektlarini taqdim etishni xalqaro marshrutlar uchun ham joriy etish zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasining transport logistika tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ 28 qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 28.01.2025. – 07 25 28 0076 son.
2. Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. – URL: <https://stat.uz> (data обращения: 05.06.2025).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi O'zbekiston 2030 strategiyasi to'g'risidagi PF 158 son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 12.09.2023. – 06 23 158 0694 son; 29.12.2023. – 06 23 214 0984 son.
4. Transport axborot logistika portal. – URL: <https://www.logistika.uz> (data обращения: 05.06.2025).
5. Ganiev R. Tashqi savdoni rivojlantirishda transport logistika infratuzilmasining o'rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – № 2.
6. Xalilov M. Sh. Logistika tizimlarini boshqarish va raqamlashtirish. – Toshkent: Iqtisod Moliya nashriyoti, 2022.
7. Eshonqulov A. O'zbekistonda transport logistikasi zarurati // Elita uz elektron ilmiy jurnal. – 2023.
8. Makhmudov S. Logistika industriyasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati // Uzbekistan Insurance Market. – 2024.
9. Tursunov B. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024.
10. G'aybullayeva N. O'zbekistonda transport tizimining rivojlanganlik darajasi va uning hududiy xususiyatlari // Tadqiqotlar jurnali. – 2025.